“FLIPPED CLASSROOM” MODELI: O’ZBEK MAKTABLARIGA ADAPTATSIYA QILISH STRATEGIYALARI

Kattaqo’rg’on davlat pedagogika instituti

Pedagogika yo’nalishi 3-kurs talabasi

Qarshiboyeva Mavluda Azizbek qizi

mavludaqarshiboyeva49@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Flipped classroom**”** modelining ta’lim jarayonida qo’llanilishi va yangi modelning afzalliklari haqida bayon qilinadi. “Flipped classroom**”** (Teskari sinf) ning o’zbek maktablarida qo’llashga oid tadqiqotlar o’rganilib, moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bu model zamonaviy ta’lim tizimida o’quvchilarning mustaqil fikrlashini oshirishga, o’qtuvchi va o’quvchilar o’rtasida interaktiv hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: “Flipped classroom**”**(Teskari sinf), ta’lim, raqamli platformalar, nazariya va amaliyot, adaptatsiya.

Abstract: This article describes the application of the “Flipped Classroom” model in the educational process and the advantages of the new model. Studies on the application of the “Flipped Classroom” in Uzbek schools are studied and the possibilities of its adaptation are analyzed. This model serves to increase the independent thinking of students in the modern education system and to develop interactive cooperation between teachers and students.

Keywords: “Flipped classroom”, education, digital platforms, theory and practice, adaptation.

Аннотация: В данной статье описывается применение модели «перевернутого класса» в образовательном процессе и преимущества новой модели. Изучены исследования по применению модели «перевернутого класса» в узбекских школах и проанализированы возможности ее адаптации. Эта модель служит для повышения самостоятельности учащихся в современной системе образования и развития интерактивного сотрудничества между учителями и учениками.

Ключевые слова: «Перевернутый класс», образование, цифровые платформы, теория и практика, адаптация.

Kirish

Bugungi raqamli dunyoda har bir sohada yangi innovatsiyalar kirib kelmoqda. Shuningdek, bu innovatsiyalar ta’lim tizimini cheklab o’tgani yo’q. Ta’limni raqamlashtirish unda zamonaviy interaktiv metod va platformalarni qo’llash nafaqat, tizimni rivojlantiradi balki, pedagoglarning o’z ustida yanada ishlashiga ish yuklamalarining kamayishiga, ta’lim sifati barqarorlashishiga olib keladi. Tadqiqotchi-ekspertlar tomonidan ana shunday yangiliklardan biri “Flipped classroom**”**(Teskari sinf) modeli ishlab chiqildi va bu samarali deb ta’kidlanmoqda. Bu modelni asosi “uyda nazariya, maktabda amaliyot” ni tashkil qiladi. Ushbu model O’zbekiston ta’lim tizimida hali yangi bo’lganligi sababli, maktablarda hali qo’llanilib ko’rilmadi. Shu bois, bu modelni asosini ochib berishga va maktablarimizda qo’llanilishini tahlil qilib, yoritishga harakat qilamiz.

Asosiy qism

Zamovaviy texnologiyalar ortib borgani sari, ta’limning an’anaviy shakli o’quvchilarda zerikishga olib kelmoqda. Buni oldini olish maqsadida ta’limga bir qancha innovatsiyalar kirib

kela boshladi va ulardan biri bu “Flipped classroom”(Teskari sinf) modelidir. Yevropaning ilg’or davlatlari Germaniya va Avstraliya 2015-yillardan Oliy ta’lim tizimida talabalar sonining ortib ketishi va dars soatlarini kamaytirish, o’zlashtirish samaradorligini kuchaytirish maqsadida aynan “Flipped classroom”(Teskari sinf) modelidan foydalana boshladi. Ushbu modelni asosiy jihati talaba va o’quvchilar darsda, auditoriyada o’tilishi kerak bo’ladigan yangi mavzuni uyda o’qib, ma’lumotlar to’plab, tushunishga harakat qilib keladi va amaliy vazifalarni yechishga tayyor holda kelishlari lozim. Dars vaqtida esa uyda mustaqil tayyorlangan bilim va ko’nikmalarini yanada boyitib, “uyga vazifalar”ni dars davomida bajarishadi. Teskari sinf modelida o’quv materiallari darslar boshlanishidan, semestr avvalidan boshlab yuklanadi. Buni har qanday ochiq platformalarga yuklash mumkin va o’quvchilar ham istalgan vaqtda topshiriqlarni bajarishlariga imkon beradi.

Flipped Classroomning ijobiy tomonlari va yutuqlari.

Flipped classroom o’quvchilarning o’quv motivatsiyasini oshiradi, darsga bo’lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiradi,ularning bilim olishiga ma’suliyatni kuchaytiradi. Uning eng katta ijobiy tomonlaridan biri bu vaqtni tejashga, bir vaqtning o’zida bir qancha o’quvchilarni baholashga imkon yaratadi. Sababi, bu modelda o’qtuvchi yangi mavzuni tushuntirishga vaqt sarflmaydi balki, o’quvchilar bilan ko’proq amaliy faoliyat olib boradi. O’qtuvchi platformaga oldindan mavzuga doir videodarslar, videoroliklar, mavzu matni va audiosini yuklab qo’yadi. O’quvchilar va talabalar esa mavzuni mustaqil o’rganib, o’z-o’zini rivojlantiradi.

Teskari sinfda faqat video tayyorlab jo’natish emas, balki sinfda ma’ruzadan bo’shagan vaqt uchun sifatli va qiziqarli mashqlar tayyorlash va LMS va boshqa Web 2.0 vositalaridan foydalanish orqali o’quvchilar bilan doimo muloqotda bo’lishlari ham muhimdir.

Flipped classroom modelining - 4ta asosiy ustuni:

1. Moslashuvchan o’quv muhiti.
2. O’rganish madaniyatining o’zgarishi.
3. Maqsadli kontent yaratish.
4. Professional o’qtuvchining roli.

“Flipped classroom”(Teskari sinf) – afzalliklari:

1. Talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi.
2. Vaqtdan samarali foydalanish imkonini yaratadi.
3. Individual yondashuvga ko’proq e’tibor qaratiladi.
4. Mustaqil o’rganish ko’nikmalarini shakllantiradi.

O’zbek maktablariga adaptatsiya qilish

O’zbekiston maktablarida ushbu modelni joriy qilishni bir qancha ijobiy jihatlari mavjud. Raqamli texnologiyalari va platformalar orqali o’quvchilarga nazariy ma’lumotlarni tezkor yetkazib berish mumkin. Masalan: “Online maktab” loyihasi asosida videodarslarni resurs qilib yuklash va foydalanish. Sinfda o’quvchilar guruhlarga bo’linib, nazariyalarni amaliyotga joriy qilishlari, murakkab formulalarni hayotiy misollar orqali o’rganishlari “casy-study” metodiklaridan foydalanishlari kerak.

Hamma hududlarda ham internet tezligi yuqori bo’lmaganligini hisobga olib, darsliklarni nafaqat video ko’rinishida, balki matnlar va qisqa konspektlar tarzida ham berish mumkin. Ota-onalarga teskari sinf modelini tushuntirish ishlarini olib borish, o’quvchilarni uyda nazorat qilishlarini ta’minlash lozim.

O’quvchilarni teskari sinf modeliga moslashtirish jarayonida bir qancha muammolar ham mavjuddir. Ulardan biri o’quvchi yoshlarning mustaqil o’rganish ko’nikmasi pastligidir. O’qtuvchi-pedagoglarning mediasavodxonlik darajasi yuqori emasligi va yuqorida keltirib

o'tilganidek, texnik muammolar hali bartaraf etilmaganligi kabi to'siqlar ushbu modelni O'zbekiston maktablariga bosqichma-bosqich olib kirilishini ko'rsatib o'tadi.

Bu muammolarga yuzaki qaramasdan, "Flipped classroom"(Teskari sinf) o'qitish modelini sinov tarzda joriy qilish darkor. "Flipped classroom – bu shunchaki texnologiya emas, balki ta'lim tizimini yuksaltirishga qaratilgan yangicha yondashuvdir"- deya qarasak bo'ladi.

Xulosa

"Flipped classroom"(Teskari sinf) modeli nafaqat ta'lim sifatini oshiradi shuningdek, ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni olib keladi, o'quvchi yoshlarning bilimlarini yanada yuksaltirishga imkon yaratadi. Bu modelni o'zbek maktablariga adaptatsiya qilishimiz orqali nazariy ma'lumotlarni real vaziyatlarda qo'llay olishga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. UNISEF UZBEKISTAN.(2022). GUIDELINES FOR ENSURING QUALITY EDUCATION IN UZBEKISTAN.
2. I.X.BERDIYEVA. "O'QITISHNING "FLIPPED CLASSROOM" MODELI: MAZMUNI, QO'LLASH TALABLARI VA IMKONIYATLARI". ILMIY MAQOLA
3. M.SH.MO'MINJONOVA. "AN'ANAVIY VA FLIPPED CLASSROOM YONDASHUVLARINING MUSTAQIL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDAGI SAMARADORLIGI: NAZARIY TAHLIL". ILMIY MAQOLA
4. SH.R.FARMONOV. "FLIPPED CLASSROOM TEXNOLOGIYASIDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH METODIKASI".